



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori**



N.B. Sayfullayev
“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“26” 06 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60210200-Kino-teleoperatorlik
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

1. Kinoteleoperatorlik mahorati fanidan
2. Fotokompozitsiya fanidan

Toshkent – 2026

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv- uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2026-yil 15 05 10-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

A.Ismailov “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kinooperator

I.Qalandarov “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası katta o‘qituvchisi, kinooperator

Taqrizchilar:

O.Dostonov O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası dotsent v.b., s.f.f.d (PhD), kinooperator

M.Matchanov O‘zbekiston kinoarboblar ijodiy uyushmasi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist

Kirish

60210200-Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, kirish imtihonlari mazkur dastur talablari asosida o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida abituriyentlarning vizual tafakkuri, kompozitsion fikrlashi, badiiy didi, fotografik kuzatuvchanligi hamda kinooperatorlik kasbiga oid ijodiy va amaliy ko'nikmalari baholanadi.

60210200-Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotgan abituriyent fotografiya, kino san'ati, kompozitsiya, yorug'lik, rakurs va zamonaviy foto-video texnologiyalar bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi, tasvir orqali obraz va dramatik holat yaratish qobiliyatini namoyon eta olishi lozim.

Fanning maqsadi va vazifalari 60210200-Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning "Fotokompozitsiya" va "Kinoteleoperatorlik mahorati" fanlari doirasidagi vizual tafakkuri, kompozitsion fikrlashi, badiiy-estetik didi hamda operatorlik kasbiga oid ijodiy va amaliy ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida abituriyentlarning:

- fotografik kuzatuvchanligi;
- kadr qurish mahorati;
- yorug'lik va rakurs bilan ishlash qobiliyati;
- tasvir orqali obraz va dramatik holat yaratish salohiyati;
- kompozitsion tafakkuri;
- zamonaviy foto va videotasvir texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalari baholanadi.

Abituriyentlar ixtisoslik fanlari bo'yicha amaliy-ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali o'zlarining operatorlik tafakkuri, vizual yondashuvi hamda badiiy tasvir yaratish imkoniyatlarini namoyon etadilar.

Kasbiy sinov davomida abituriyentning:

- kino va fotografiya san'atiga qiziqishi;
- vizual-estetik dunyoqarashi;
- tasviriy fikrlash madaniyati;
- badiiy kuzatuvchanligi;
- texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasi;
- mustaqil ijodiy yondashuvi ham inobatga olinadi.

Mazkur imtihonlar abituriyentlarning kinooperatorlik yo'nalishida professional ta'lim olishga tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

"Fotokompozitsiya" fani bo'yicha kirish imtihoni suhbat va savol-javob shaklida o'tkaziladi. Suhbat jarayonida abituriyentning fotografiya san'ati bo'yicha bilim doirasi, vizual tafakkuri, badiiy-estetik didi, kompozitsion fikrlashi, fotoapparatlar bilan ishlash ko'nikmalari hamda fotografik kuzatuvchanligi baholanadi.

Abituriyentlar imtihon komissiyasiga 15x22 sm o'lchamdagi 10–15 dona fototasvir taqdim etishlari lozim. Fototasvirlarda personajlarning emotsional holatini ochib berish, psixologik xarakterini vizual ifodalash, tasvirga olish nuqtasi va rakursni to'g'ri tanlash, kadr mazmundorligini oshirish hamda fon va kompozitsion uyg'unlikni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, peyzaj janridagi fototasvirlar ham qabul qilinadi. Fototasvirlarda qishloq va shahar manzaralari, sanoat inshootlari, arxitektura obyektlari hamda tabiiy landshaft elementlari badiiy va kompozitsion yondashuv asosida aks ettirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylar, jamoat binolari va turar joy intererlariga oid fotografik ishlarga ham ruxsat etiladi.

Fotoetyud va janrli fotografik ishlarda abituriyentlarning kompozitsion tafakkuri, vizual kuzatuvchanligi, motiv tanlash mahorati hamda yorug'lik sharoitidan badiiy va mazmuniy jihatdan to'g'ri foydalana olish qobiliyati namoyon bo'lishi lozim.

Ijodiy imtihonga taqdim etilgan reportaj va janrli fotografik ishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ishlar orqali abituriyentning mavzu va syujet tanlash qobiliyati, atrof-muhitni badiiy idrok etishi, zamonaviy hayot voqeligini tasvir orqali ifodalash mahorati hamda tasvirga olish nuqtasi, rakurs, yirik va umumiy planlar bilan ishlash ko'nikmalari baholanadi.

“Fotokompozitsiya” fanidan amaliy topshiriqlar abituriyentning shaxsiy fotoapparati yordamida bajariladi. Fototasvirlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdim etiladi:

1. 5 dona portret yoki gipsli byust kompozitsiyasi (pavilon sharoitida sun'iy yorug'lik asosida tasvirga olinadi);
2. 5 dona natyurmort kompozitsiyasi (pavilon sharoitida sun'iy yorug'lik asosida tasvirga olinadi).

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fani bo'yicha suhbat jarayonida jahon va o'zbek kinematografiyasi namoyondalarining ijodi, o'zbek kino san'atining yuksak namunalari, tasviriy san'at hamda jahon va o'zbek adabiyotiga oid savollar ham beriladi. Bunda abituriyentning kino va san'atga oid nazariy bilimlari, badiiy-estetik dunyoqarashi hamda operatorlik kasbiga oid fikrlash darajasi baholanadi.

Abituriyent:

- kino san'ati va operatorlik kasbining shakllanish tarixini bilishi;
- kino janrlari va ularning xususiyatlarini tushunishi;
- kino optikasi va obyektiv turlarini farqlay olishi;
- kinotexnika va tasvirga olish jarayonining asosiy tamoyillarini tushunishi;
- kino va videokameralarning texnik imkoniyatlari haqida bilimga ega bo'lishi;
- kompozitsiya asoslarini tushunishi;
- natyurmort va portret suratga olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- jahon va o'zbek kinooperatorlari ijodini bilishi;
- video va televideniya haqida raqamli texnologiyalar haqida boshlang'ich tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar “Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan abituriyent kino san’ati va operatorlik kasbining paydo bo‘lish tarixi, kino janrlari va ularning xususiyatlari, jahon va o‘zbek kinooperatorlari ijodi haqida boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, kino va videotasvirga olish jarayoni, kamera turlari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

Abituriyent tasvirga olish jarayonida kompozitsiya, rakurs, yorug‘lik va planlar bilan ishlashning asosiy tamoyillarini tushunishi, videokamera va tasvirga olish texnikalaridan foydalana olishi lozim. Suhbat jarayonida uning vizual tafakkuri, ijodiy fikrlashi, operatorlik qobiliyati hamda kino san’atiga bo‘lgan qiziqishi inobatga olinadi.

“Fotokompozitsiya” fanidan abituriyent foto san’ati asoslari, fotografik kompozitsiya, yorug‘lik va rakurs bilan ishlashning boshlang‘ich qoidalarini bilishi lozim. Shuningdek, fotoapparatlar va tasvirga olishda qo‘llaniladigan yordamchi texnik vositalar haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

Abituriyent fototasvir orqali g‘oya va obraz yaratishni tushunishi, portret, natyurmort va peyzaj janrlarida ishlay olishi, kompozitsiya va yorug‘likdan to‘g‘ri foydalana bilishi lozim. Suhbat va ijodiy ishlar jarayonida uning vizual tafakkuri, fotografik kuzatuvchanligi, badiiy didi hamda ijodiy yondashuvi inobatga olinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi: “Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko‘rinishi, odobi va muomala madaniyati	5
2.	Jahon va o‘zbek kinooperatorlari ijodi haqidagi bilimlari	10
3.	Kino janrlari va ularning xususiyatlarini tushunishi	10
4.	Zamonaviy video, televideniye va raqamli texnologiyalar bo‘yicha tushunchasi	10
5.	Tasviriy san’at va fotografiya asoslari bo‘yicha bilimlari	10
6.	Yorug‘lik, rakurs va kompozitsiyadan foydalana olish qobiliyati	12
7.	Kadrni qurish (portret, natyurmort va peyzaj janrlarida ishlash) ko‘nikmasi	12
8.	Fototasvir orqali g‘oya va badiiy mazmuni ifodalash mahorati	14
9.	Ijodiy tasavvur va obrazli fikrlash darajasi	10
	jami	93

“Fotokompozitsiya” fanidan

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Adabiyot va san’atga oid umumiy bilimlarga ega bo‘lishi	8
2.	Foto san’ati va fotografik tasvir asoslarini tushunishi	5

3.	Fotografiyaga oid tasvirga olish apparatlari va yordamchi texnik vositalarni bilishi	5
4.	Fototasvirga olish jarayonining texnik asoslarini tushunishi	7
5.	Kamera sozlamalaridan to'g'ri foydalana olish usullarini bilishi	8
6.	Vizual tafakkuri, ijodiy fikrlashi va kompozitsion yondashuvi	8
7.	Kompozitsiya, rakurs va yorug'likdan foydalana olish mahorati	8
8.	Portret, natyurmort va peyzaj janrlarida ishlash ko'nikmasi	5
9.	Fotosuratlariga kompyuter dasturlari yordamida ishlov bera olishi	5
10.	Montaj dasturlari va vizual ishlov berish bo'yicha boshlang'ich tushunchaga ega bo'lishi	4
Jami		63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi 60210200-Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida yakka tartibda tasvirga olingan ijodiy ishlari ko'rigi o'tkaziladi. Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan 30 kishilik guruhlarda maxsus qurollar bilan jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017 yil

4. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil.

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

6. Blain Brown. "Cinematography Theory and Practice" Darslik. USA 2004

7. Paul Wheeler "Practical cinematography" 2005 y. USA

8. Meliqo'ziev I. Kino-teleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari). Darslik. Toshkent 2017, Leson Pres.

9. I. Meliqo'ziev, K.Xidirova Fotokompozitsiya. O'quv qo'llanma. Toshkent 2019, Leson Pres.
10. A.Ismailov "Kinoteleoperatorskoye masterstvo" - uchebnik. Tashkent, 2004 g.
11. A.Ismailov "Jivopis so svetom v tvorchestve Vittorio Starraro" - uchebnoye posobiye. T. 2005 g.
12. A.Golovnya «Kinooperatorskoye masterstvo» Moskva. 1965 g.
13. A. Sokolov «Montaj kino i telefilmov» Moskva. 2000 g.
14. L.P.Diko - «Osnovi kompozitsii fotografii» Moskva.1989 g.